

XALQ MUSIQA IJODIYOTI ASOSIDA O'SMIRLARDA MILLATLARARO TOTUVLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAMOIYILLARI

Z.K.Ibadullaeva – *assistent o'qituvchi*

J.S.Kalmenov – *katta o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: xalq, musiqa ijodiyoti, madaniyat, pedagogik tamoyillar, milliy qadriyatlar.

Ключевые слова: народ, музыкальное творчество, культура, педагогические принципы, национальные ценности.

Key words: folk, musical creativity, culture, pedagogical principles, national values.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida madaniy xilma-xillik va millatlararo hamkorlikni mustahkamlash ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalq musiqa ijodiyotidan samarali foydalanish orqali yosh avlodda tolerantlik, o'zaro hurmat, madaniyatlararo muloqot madaniyati kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb metodologik yo'nalish hisoblanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida insoniyat sivilizatsiyasining barqaror rivojlanishiga erishish yo'lida jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash dolzarb pedagogik va ijtimoiy-madaniy vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, yoshlarda, xususan, o'smir yoshdagi-larda totuvlik, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasining muhim kafolatlaridan biridir. Bu jarayonni ta'minlashda xalq musiqa ijodiyotining tarbiyaviy, axloqiy va estetik imkoniyatlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogikada xalq og'zaki ijodi, xususan, musiqiy folklor asarlari milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni idrok etish, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda beqiyos vosita sifatida talqin etilmoqda. Xalq musiqasi nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni, ayniqsa, boshqa millat va elatlar madaniyatiga nisbatan hurmat, qiziqish, bag'rikenglik kabi axloqiy-psixologik sifatlarni rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida millatlararo totuvlikni shakllantirishning ta'limiy va tarbiyaviy asosini tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirish jarayonida xalq musiqa ijodiyotining sotsiomadaniy va akseologik imkoniyatlarini aniqlash, mavjud ilmiy-uslubiy tajribalar tahlili orqali amalga oshirildi. N.To'raqulov, A.Abdullaeva [1], I.F.Xalilov umuminsoniy va etnik qadriyatlarni integratsiyalash imkoniyatlarini ta'kidlagan [2], S.N.Barisheva, Ye.A.Lutseva [3] N.I.Lobanova milliy musiqa vositasida tolerantlik tarbiyasini konseptual tahlil qilgan [4]. Shu bilan birga, E.H.Erickson, G.Hofstede [5] M.Banks tomonidan ilgari surilgan multikulturalizm nazariyasi [6] tadqiqot metodologiyasini belgilashda zamonaviy nazariy asos sifatida xizmat qildi.

Mazkur maqolada xalq musiqa ijodiyoti asosida o'smirlar ongida millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirishga doir pedagogik tamoyillar tizimlashtiriladi va ularning ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyasi konseptual asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy-metodik yondashuvi xalq an'analarining estetik did, ijtimoiy tafakkur va tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu boradagi pedagogik strategiyalar amaliy tajribalar bilan boyitiladi. Shu bilan birga kontent-tahlil, fenomenologik kuzatuv va pedagogik tajriba usullari asosiy metodik vosita

sifatida qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili milliy musiqa vositasida madaniy identifikatsiya, empatik aloqa va ko'pmadaniyatli muhitda ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berdi.

Muhokama. Pedagogik nuqtayi nazardan, o'smirlar shaxsida millatlararo totuvlik madaniyatini xalq musiqa ijodiyoti vositasida shakllantirish quyidagi fundamental tamoyillarga asoslanadi:

Integrativlik tamoyili – xalq musiqa ijodiyotini boshqa fanlar (tarix, adabiyot, geografiya) bilan uzviy bog'lab o'qitish orqali o'quvchilarda dunyoqarashning yaxlitligini ta'minlash.

Dialogik madaniyat tamoyili – musiqiy madaniyat orqali millatlararo muloqotga tayyorlikni, boshqa madaniyatlarni tushunish va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Sub'ektiv faoliyatga yo'naltirish tamoyili – o'quvchilarning mustaqil musiqiy-folklor izlanishlari, sahna chiqishlari, milliy kuylarni ijro etish orqali o'zini ifoda etish, ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatlarini yaratish.

Empatik idrok tamoyili – xalq musiqasi orqali boshqa millatlar ruhiyatini, madaniy-falsafiy qarashlarini his etish, boshqalarning hissiy holatini tushunish malakasini shakllantirish.

Qadriyatga yo'naltirilganlik tamoyili – musiqiy meros orqali insoniylik, vatanparvarlik, do'stlik, totuvlik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ongli tarzda o'zlashtirish.

Bu tamoyillar asosida shakllanadigan tarbiyaviy model xalq musiqa ijodiyotini o'quv-tarbiya jarayoniga faol integratsiya qilishni, pedagogning ma'naviy-axloqiy faoliyatini qayta yo'naltirishni, o'quvchilarning estetik ehtiyoj va musiqiy qiziqishlarini millatlararo uyg'unlik yo'lida yo'naltirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonni modernizatsiyalash sharoitida musiqiy-ta'limiy vositalarning sotsializatsiya, identitetning shakllanishi va fuqarolik ongini rivojlantirishdagi o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqa ijodiyoti, ayniqsa, o'smir yoshdagi shaxsning axloqiy-estetik tarbiyasi, milliy o'zlikni anglash va madaniyatlararo totuvlik madaniyatini qaror toptirishda kuchli ijtimoiy-pedagogik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi kabi ko'p millatli hudud sharoitida bunday yondashuvning dolzarbligi yanada ortadi, chunki bu makonda turli etnoslar va madaniyatlar tinch-totuv yashab kelmoqda. Shu boisdan xalq musiqa merosining tarbiyaviy potensialini chuqur o'rganish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'smirlarda interkultural kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish zaruratga aylangan.

Natijalar. Xalq musiqa ijodiyoti asosida tuzilgan pedagogik model o'smirlarda millatlararo totuvlik

madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model asosida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar o'quvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, tolerantlik pozitsiyasi, etnomadaniy identifikatsiya va ijtimoiy-emotsional muvozanatning shakllanishiga ko'maklashadi. Milliy musiqa vositalari orqali yoshlar ongida ko'p madaniyatli ijtimoiy muhitga nisbatan ochiqlik, o'zaro hurmat, empatik idrok va madaniy integratsiyaga tayyorlik kabi barqaror psixopedagogik holatlar mustahkamlanadi. Tadqiqotda o'smirlarda interkultural kompetensiya komponentlari – tolerantlik, empatiya va madaniy dialog salohiyati – pre-test va post-test natijalari juft namunali t-test yordamida taqqoslandi: tolerantlik o'rtacha $3,2 \pm 0,5$ dan $4,1 \pm 0,4$ gacha oshib ($t(23)=8,76$; $p<0,001$; Cohen's $d=1,85$), empatiya $2,8 \pm 0,6$ dan $3,7 \pm 0,5$ gacha ko'tarilib ($t(23)=7,45$; $p<0,001$; $d=1,52$), madaniy dialog salohiyati esa $2,9 \pm 0,5$ dan $3,8 \pm 0,4$ gacha yaxshilandi ($t(23)=8,12$; $p<0,001$; $d=1,67$). Non-parametrik Wilcoxon signed-rank testi ham barcha ko'rsatkichlarda $Z>3,6$ ($p<0,001$) natijalarini tasdiqladi, bu interkultural pedagogik modelning o'smirlarning ijtimoiy-emotsional va madaniy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Natijada, xalq musiqasi asosida boyitilgan mazmunli

pedagogik yondashuvlar orqali o'smirlarning fuqarolik ongini shakllantirish va madaniy xilma-xillikni qadrlashga yo'naltirilgan kompetensiyalar rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xalq musiqa ijodiyoti asosida o'smirlarda millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirish, aksiologik yondashuv va sotsiokultural integratsiya asosida samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlar tolerantlik kompetensiyasini shakllantirishda, madaniyatlararo kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda muhim didaktik resurs bo'lib xizmat qiladi. Taklif etamizki, umumta'lim maktablarida musiqa darslarida xalq musiqa ijodiyoti elementlarini integratsiyalovchi modul va o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarni etnopedagogika hamda interkultural yondashuv bo'yicha maxsus malaka oshirish treninglari orqali tayyorlash, multimodal interaktiv dars materiallari va xalq musiqa namunalari asosidagi onlayn pedagogik platformalar yaratish, xalq musiqa ijodiyoti ta'sir mexanizmlarini fenomenologik kuzatuv va eksperiment metodlari yordamida chuqur o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish va mahalliy hokimiyat hamda Ta'lim vazirligi darajasida milliy madaniyatni pedagogik integratsiyalash bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish muhimdir.

Adabiyotlar

1. Тўракулов Н., Абдуллаева А. Ўспиринг мусика тарбиясининг аксиологик асослари. – Тошкент: 2020.
2. Халилов И.Ф. Миллий маданият ва ёшлар онгида интеркультура ёндашув. – Тошкент: 2021.
3. Барышева С.Н, Лутцева Е.А. Музыкальная педагогика как средство формирования межкультурной толерантности. – Москва: 2015.
4. Лобанова Н.И. Формирование толерантности средствами музыкального искусства. // «Педагогика и искусство», 2019, №2. – С. 42-47.
5. Erickson E.H., Hofstede G. Identity, Youth and Crisis. – New York: W.W.Norton, 2016.
6. Banks J.A. Cultural diversity and education: Foundations, curriculum, and teaching. – Boston: «Pearson Education», 2006.

REZYUME. Maqolada xalq musiqa ijodiyoti asosida o'smirlar ongida millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik tamoyillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalq an'alarining ijtimoiy tafakkur va tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются педагогические принципы формирования культуры межнационального согласия в сознании подростков на основе народной музыки, а также ставится задача определить роль народных традиций в формировании социального мышления и навыков толерантности.

SUMMARY. The article examines the pedagogical principles of developing a culture of interethnic harmony in the minds of adolescents based on folk music, and also sets the task of determining the role of folk traditions in developing social thinking and tolerance skills.

O'QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ZARURATI

I.Ibodullayeva – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: muloqot, mustaqil fikr, tanqidiy tahlil, madaniyat, qadriyat, aksiologik yondashuv, axloqiy me'yor, kasbiy madaniyat, intellektual sifat.

Ключевые слова: общение, независимое мышление, критический анализ, культура, ценности, аксиологический подход, нравственные нормы, профессиональная культура, интеллектуальные качества

Key words: communication, independent thinking, critical analysis, culture, values, axiological approach, moral norms, professional culture, intellectual qualities.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kun pedagogikasining eng asosiy vazifasi shaxsning o'zligini anglashi va shaxsiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Buning uchun esa, albatta, har bir inson o'z ota bobolarining o'tmishi, shakllanish tarixi, qadriyatlaridan xabardor bo'lishi joizdir. Bu orqali insonda o'tmishdagi voqealarni to'g'ri baholay olish, kelajak uchun yangi g'oyalar yaratish, yangi bilimlar egallash va, albatta, turli vaziyatlarga tanqidiy yondasha

olish ko'nikmasi shakllanadi. “Zero, qadriyat – bu shaxsning yoki jamiyatning hayotida muhim va ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy, madaniy va estetik normalar va tushunchalardir” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Falsafashunos olim Qiyomiddin Nazarov ilmiy faoliyati davomida aksiologiya hamda ta'limda aksiologik yondashuvlar xususida juda ko'p izlanishlar olib borgan. Olim o'zining bir qator